



MAMLAKATIMIZDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISLOM MOLIYASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikka erishish va isloxotlarni yaxshilash jarayonida islom moliyasining iqtisodiy o'zgarishlarga ta'siri o'rganilgan. Shu bilan birgalikda islomiy moliyaning zamonaviy iqtisodiyot tuzilmasi, tizimlari va faoliyatidagi sezilarli va keng qamrovli o'zgarishlarga olib kelishi, bu esa mahsulot ishlab chiqarish, raqobatbardoshlik va umumiy iqtisodiy farovonlikning barqaror yaxshilanishiga sabab bo'luvchi eng muxim omillardan biri sifatida muallif tomonidan o'z qarashlari bayon etilgan. Ushbu qarashlarni mamlakatlar va yillar kesimida bayon etilgan statistik ma'lumotlar asosida muallif yanada mustaxkamlagan.

Kalit so'zlar: islom iqtisodiyoti, dualistik moliya tizimi, islomiy moliya, moliyaviy inklyuziya, islomiy moliya maxsulotlari, islomiy bank.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В ДОСТИЖЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Хабибуллаев Дадажон Рўзбоевич
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается влияние исламских финансов на экономические изменения в процессе достижения экономической стабильности и совершенствования реформ в нашей стране. При этом автор высказал свои взгляды как один из важнейших факторов, приводящих к существенным и комплексным изменениям в структуре, системах и деятельности современной экономики, что является одним из важнейших факторов, обуславливающих стабильное повышение уровня производства продукции, конкурентоспособности и общего экономического благосостояния. Автор еще больше укрепил эти взгляды на основе статистических данных, представленных по странам и годам.

Ключевые слова: исламская экономика, дуалистическая финансовая система, исламские финансы, финансовая доступность, исламские финансовые продукты, исламский банкинг.

PROSPECTS OF USING THE OPPORTUNITIES OF ISLAMIC FINANCE IN ACHIEVING ECONOMIC STABILITY IN OUR COUNTRY

Khabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich
Tashkent State University of Economic

Abstract. The article discusses the impact of Islamic finance on economic changes in the process of achieving economic stability and improving reforms in our country. At the same time, the author expressed his views as one of the most important factors leading to significant and complex changes in the structure, systems and activities of the modern economy, which is one of the most important factors that determine a stable increase in the level of production, competitiveness and general economic well-being. The author further strengthened these views based on the statistics presented by country and year.

Key words: islamic economy, dualistic financial system, Islamic finance, financial inclusion, Islamic financial products, Islamic banking.

Kirish.

Barcha davrlarda Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar bir-biridan ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari bilan tubdan ajralib turadi. O'z navbatida aytish mumkinki, yangi ishlab chiqarish munosabatlari mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqadi. Yangi ishlab chiqarish munosabatlarning vujudga kelishi bilan bir vaqtda davlat tuzilmasi ham ushbu munosabatlarga boshqichma bosqich moslashib bormog'i kerak.

Har bir ijtimoiy tuzum va shunga muvofiq ravishda, shu tuzumdagi davlatga ma'lum bir moliyaviy tuzilma mos keladi va bosqichma bosqich moslashib boradi.

Shu nuqtai nazardan aytadigan bo'lsak Iqtisodiyotning bugungi zamonaviy qiyofasida dunyo mamlakatlarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan va xalqaro moliya maydonida o'z o'rnini yanada mustaxkamlab borayotgan Islom moliya tizimiga bo'lgan qiziqish tobora o'sib bormoqda. Bugungi kunda an'anaviy moliya mexanizimiga raqobatchi o'laroq, yangi islomiy moliya mexanizmlar xususan islomiy banklar, islomiy sug'urta tashkilotlari, investitsiya jamg'armalari va boshqa islomiy moliyaviy vositachilar tashkil qilinib, nafaqat musulmon diyorlarda balki nomusulmon bo'lgan o'lkalarda xam keng rivojlanib borayotgani bir muncha axamiyatga molik jixatlardandir. So'zimiz isboti o'laroq aytish mumkinki xozirda islom moliyasi sektori yiliga 15% dan 25% gacha o'sib borayotganligi, bu yo'nalishdagi moliyaviy tashkilotlar esa jahonda \$2.7 trldan ortiq aktivlarni boshqarmoqda (IFDI, 2022).

Shu nuqtayi nazardan Mamlakatimizda xam ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish uchun musulmon mamlakatlaridagi banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini ko'rib chiqishi ayni muddaodir. Shuningdek, milliy bank tizimini o'rganish va hamkorlik asosida moliyalashtirish hamda an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlarini ko'rib chiqish uchun yangi yondashuv zarurligini xam eslab o'tishimiz darkor.

Xususan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyev IHT TIV kengashi 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqidan quyidagi satrlarni keltirib o'tish joiz: "Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi"¹⁸ -deya ta'kidlagan edi.

O'zbekiston, Markaziy osiyodagi axoli soni jixatidan eng katta bo'lgan va uning axolisi tarkibining 90% dan ziyodini musulmonlar tashkil etuvchi rivojlanayotgan davlatdir (Imamnazarov, 2023).

Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish uchun musulmon mamlakatlaridagi investitsiya fondlari, banklar va kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini ko'rib chiqishi ayni muddaodir.

O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikni rag'batlantirishi uchun an'anaviy moliya tizimidan farqli o'laroq mamlakatda islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etilishi va sarmoyalarni jalb qilinishi potentsial yo'l bo'lishi mumkin (Абipopов, 2021). Bu esa dualistik moliya tizimini shakillantirishni anglatadi, ammo bu puxta o'ylash va rejalashtirishni talab qiladi. Bu tizimni moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan huquqiy va me'yoriy bazani o'rganish, shuningdek, O'zbekistondagi investorlar va qarz oluvchilarning ularga bo'lgan potentsial talabini baholashni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini, xususan, jahon iqtisodiy barqaror rivojlanish jarayonlarini kuzatar ekanmiz, islom huquqi qoidalariga asoslangan moliyaviy munosabatlarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Islom iqtisodiyoti va moliyasi asoslari nafaqat musulmon mamlakatlardagi balki G'arbdagi ko'plab iqtisodiy va moliyaviy institutlarda, ta'lim muassasalarida olimlar tomonidan o'rganilib, tadqiqot obyektining ajralmas qismiga aylandi.

So'nggi yillarda aytish joizki islom moliyasining kengayib borayotgan nufuzi turli kasb egalarining, jumladan, ekspertlar, moliyachilar, tadqiqotchilar va universitet professorlarining qiziqishi va faolligini oshirdi.

¹⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/19/ustuvor/>

Tadqiqotchilar va akademiklar ushbu sohadagi bilimlar jamlanmasiga hissa qo'shish uchun islom iqtisodiyoti va moliyasining turli jihatlarini faol ravishda o'rganmoqdalar. Ular islom iqtisodiyoti nazariyasi, islom moliyaviy vositalari, islom moliyasida risklarni boshqarish va islom moliyasining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri kabi mavzularni o'rganib kelishmoqda. Ularning faoliyati nafaqat akademik nutqni boyitibgina qolmay, balki islom moliyasining amaliy qo'llanilishi va rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Universitet professor-o'qituvchilari ushbu sohadagi bilimlarga bo'lgan qiziqish va talabni qondirish uchun o'z o'quv dasturlariga islom iqtisodiyoti va moliyasini kiritmoqda. Ular islom iqtisodiyoti va moliyasining asosiy tamoyillari, nazariyalari va amaliy jihatlarini qamrab oluvchi kurslar va dasturlarni ishlab chiqadilar. Ushbu professor-o'qituvchilar talabalarni zarur bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish orqali bo'lajak mutaxassislarini islom moliya sanoatining o'sishi va rivojlanishida faol ishtirok etishga tayyorlaydilar.

Bugungi kunda islom iqtisodiyoti va moliyasiga oid adabiyotlar va ilmiy ishlanmalarga Amerika, Avstraliya, Afrika, Yevropa kabi rivojlangan davlatlarda xam, ayniqsa investorlar tomonidan juda katta qiziqish bildirilmoqda.

Mutaxassislar va amaliyotchilar islom ta'limotlaridan kelib chiqadigan tamoyillar va qadriyatlarni o'rganishni o'z ichiga olgan islom iqtisodiyotining asosiy tushunchalari bilan tanishishga intilmoqda. Ular iqtisodiy faoliyat doirasida adolat, tenglik, axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy mas'uliyat kabi mavzularni o'rganadilar. Bu bilim islomiy moliya bilan shug'ullanish va islom tamoyillariga muvofiq biznes yuritish uchun zarur hisoblanadi (Baydaulet, 2019).

Ular islomiy bank ishi, islom sug'urtasi (Takoful) va islom kapital bozorlari kabi islomiy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni tartibga soluvchi tamoyillar haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo'lishga intilishmoqdalar. Bu bilim ularga shariatga mos moliyaviy yechimlarni taqdim etish va axloqiy va foizsiz muqobillarni qidirayotgan mijozlarning o'sib borayotgan segmenti talablarini qondirish imkonini beradi.

Shu nuqtaiy nazardan rus tilida yozilgan kitoblarni taxlil qiladigan bo'lsak ularning aksariyati 2000-yillarda yozilgan bo'lib mualliflari R.I. Bekkin, E.A. Baydaulet, N.V. Jdanov va b. Ularning asarlarida islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish va samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritib berilgan.

Shuningdek xorijiy yirik iqtisodchi olimlardan (Mufti Muxammad Taqiy Usmoniy 1998, Kabir Xasan va Mervin Lyuisn 2011, Hans Visser 2019, Brayon Kettel 2008) tomonidan ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Shu bilan birgalikda aytish mumkinki o'zbek tiliga tarjima qilingan kitoblar va o'quv qo'llanmalar xam bir muncha ortib bormoqda. Xozirda mamlakatimizda ba'zi olimlar tomonidan S.Xorun, V.Nursofizan "Islomiy moliyalar va Bank tizmi", R.V.Abdullayev, S.M.Dusanov "Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar", shuningdek R.I.Bekkinning «Исламская экономическая модель и современность» kitobi o'zbek tiliga tarjima qilinishi va bir qancha ilmiy risolalarida islom iqtisodiyoti va moliyasi bo'yicha olib brogan izlanishlar birmuncha axamiyatga molik. Shu o'rinda qayd etish joizki, o'zbek olim va izlanuvchilardan (Xasanov 2017, Imamnazarov 2023, Abrorov 2020, Tursunov 2021, Zayniddinovlar 2022) islom moliyasining bugungi kundagi eng muxim nuqталarda nechog'lik zarur ekanligi xususida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada rivojlangan mamlakatlarda chop etilgan mavzuga doir adabiyotlar, Islom tarqqiyot banki ma'lumotlar ba'zasi va internet tarmog'idagi mavjud eng so'ngi ma'lumotlar o'rganilindi va tadqiqotning qiyosiy taxlili, xamda ilmiy abstraktsiyalashda foydalanildi. Shuningdek empirik, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, induktsiya va deduktsiya metodlari, dinamik tahlil usullaridan foydalanilib maqola so'ngida taklif va tafsiyalar berildi.

Tahlil natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy barqarorlikka erishish deganda iqtisodiyotning tabiiy resurslarini kamaytirmasdan, atrof-muhitga zarar etkazmasdan yoki kelajak avlodlar farovonligiga putur etkazmasdan uzoq muddatli barqaror va muvozanatli o'sishni ta'minlash qobiliyati tushuniladi. Iqtisodiy barqarorlik qisqa muddatli iqtisodiy o'sishni emas balki hozirgi aholi ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlaydigan va kelajak avlodlar ham

o'z ehtiyojlarini qondirishini ta'minlaydigan barqaror va inklyuziv iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan bo'lishligi lozimdir.

Umuman olganda, ishlab chiqarish munosabatlari va davlat o'rtasidagi munosabatlar murakkab jarayondir. Jamiyat ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashda dolzarb va samarali bo'lib qolishi uchun davlat o'zgaruvchan iqtisodiy tuzilmalarga moslasha olishi kerak.

Hukumatlar ko'pincha iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun moliya sektorini o'zgartirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradilar. Moliyaviy barqarorlik umumiy iqtisodiy barqarorlik uchun juda muhimdir, chunki mustahkam moliyaviy tizim resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi, barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi va moliyaviy inqirozlar xavfini kamaytiradi.

Moliyaviy sektorni o'zgartirish uchun hukumatlar ko'rishi mumkin bo'lgan turli chora-tadbirlar mavjud. Masalan, islomiy moliya va an'anaviy moliyani o'zida mujassam etgan dualistik moliya tizimini rivojlantirish xam hukumatlar moliya sektorini o'zgartirish uchun ko'rishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarga misoldir (Xabibullayev, 2023).

Ushbu ikki tizimning birgalikda mavjudligini iqtisodiyotdagi shaxslar va korxonalarining turli xil moliyaviy ehtiyojlariga javob sifatida qarash mumkin. An'anaviy moliya an'anaviy manfaatlarga asoslangan moliyaviy mahsulot va xizmatlardan qulay bo'lganlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondiradi, islomiy moliya esa shariatga mos moliyaviy mahsulot va xizmatlarni afzal ko'rganlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondiradi.

Ushbu nazariya bu ikki moliyaviy tizimning birgalikda bir iqtisodiy tizimda ba'zi muammolarni, shu bilan birgalikda bir qancha imkoniyatlarni xam yuzaga keltirishi mumkin. Ikki tizim o'rtasidagi me'yoriy-huquqiy baza, buxgalteriya standartlari va bozor amaliyotidagi farqlar tufayli qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Biroq, bu ikki moliyaviy tizimning birgalikda mavjudligi moliyaviy innovatsiyalar, raqobatning kuchayishi va jismoniy shaxslar va korxonalar uchun moliyaviy inklyuzivlikni yaxshilashga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda islom moliya tizimiga bo'lgan qiziqish yurtimizda xam karrasiga ortib bormoqda.

Shu nuqtaiy nazardan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish uchun musulmon mamlakatlaridagi banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini ko'rib chiqishi ayni muddaodir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo'llagan Murojaatnomasida "... mamlakatimizda mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"¹⁹, deb ta'kidlab o'tdilar.

Islom huquqidan (shariatdan) olingan tamoyillarga asoslangan islom moliya tizimi dastlab musulmonlar ko'p bo'lgan mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan va joriy qilingan. Bu xalqlar o'zlarining diniy e'tiqodlari va ahloqiy qadriyatlariga sodiq bo'lgan, adolatlilik, ochiqlik va tavakkalchilikni taqsimlashni targ'ib qiluvchi iqtisodiy tizim yaratishga intilib, manfaat (ribo) va chayqovchilikdan qochishgan (Hasanov, 2017).


Vaqt o'tishi bilan islom moliyasining tamoyillari va amaliyoti nafaqat musulmon jamiyatlarda balki boshqa axolisi musulmon bo'lmagan jamiyatlarni ham e'tiborini qozondi. Xalqaro moliya institutlari, jumladan, banklar va investitsiya firmalari islom moliyasining imkoniyatlarini o'ziga xos xususiyatlar va imtiyozlarni taklif qiluvchi muqobil tizim sifatida tan oldilar.

XX asr boshlarida zamonaviy islomiy moliya tizimini rivojlantirishga bir qancha urinishlar bo'lgan, biroq 1950-yillarga kelib, axolising ko'p qismini musulmonlar tashkil qiliadigan mamlakatlar mustaqillikka erishgandan so'ng, Misrda birinchi islom bankiga asos solingan. Mit Ghamr deb nomlangan ushbu bank 1963-yilda tashkil etilgan bo'lib, foyda va zararni taqsimlash (Mudarabah) va xarajatlarni qo'shimcha moliyalashtirish (Murabaha) tamoyillariga asoslangan edi.

Keyingi yillarda turli mamlakatlarda, jumladan, Saudiya Arabistoni, Quvayt va Malayziyada bir qancha boshqa islom banklari tashkil etildi. Bu banklar shariat tamoyillariga mos keladigan moliyaviy mahsulotlar va tuzilmalar qatoriga asoslangan zamonaviy islom moliya tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi (Haydarov, 2022).

Bugungi kunda islomiy moliya global sanoatga aylandi, islomiy moliya institutlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu, shuningdek, islom moliyasiga o'sib borayotgan talabni qondirish uchun shariatga mos mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqqan an'anaviy moliya institutlarining qiziqishini uyg'otdi.

¹⁹ <https://president.uz/oz/lists/view/4057>




1-rasm. Islom moliyasining zamonaviy tarixi²⁰

²⁰ Ushbu rasm islom iqtisodiyotining yaqin tarixi bo'lib, turli internet ma'nbaalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

1975-yilda Islom taraqqiyot bankining ta'sis etilishi islom moliyasining global bosqichga o'tganligini jahon hamjamiyatiga e'lon qildi. Islom bank-moliya tizimining 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida nafaqat barqarorlik namoyish etganligi, balki o'sishda davom etganligi xalqaro e'tirofga sabab bo'ldi.

Islom iqtisodiyotida boylikning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishini ta'minlashga katta e'tibor berilgan, bu esa ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi. Boylikni yaratish va uni adolatli taqsimlash eng muhim shart hisoblanadi. Biznesda sheriklikka asoslangan foyda va zararni taqsimlash eng adolatli usullaridan biri hisoblanadi, chunki u barcha sheriklar o'rtasida natija qanday bo'lishidan qat'iy nazar adolatli bo'lishish imkonini beradi. Bunday sheriklik orqali adolatli taqsimlashni ta'minlash uchun aniq shartlar belgilanadi (Taner SEKMEN, 2021).

Islomda barcha iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar islom huquqi tizimi bo'lgan shariatga asoslanadi (Usmani Muhammad Taqi, 1998).



2-rasm. Islomda iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning xuquqiy asoslari²¹


Globalashuv va transchegaraviy o'zaro ta'sirlar kuchaygani sari, islomiy moliya ko'pchilik musulmon bo'lmagan turli mamlakatlarda ham o'z yo'lini topdi. Bu islom tamoyillariga mos keladigan axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy yechimlarni izlayotgan shaxslar, korxonalar va hukumatlar tomonidan qiziqish uyg'ota boshladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda islomiy moliyaning tarqalishi uning samaradorligi va hayotiy moliyaviy tizim sifatida qabul qilinishining ortib borayotgani islom moliyasining qanchalar ishonchli tizim ekanligiga dalolatdir. An'anaviy moliyaviy tizimlarga ega bo'lgan bunday mamlakatlar islomiy moliyani muqobil variant sifatida qabul qilayotgani uning turli iqtisodiy sharoitlarga moslashishi va jozibadorligini yana bir bor isbotlab berdi.

"Thomson Reuters" agentligi tomonidan nashir etilgan "Islamic finance development report 2022" ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 136 ta mamlakat islom moliyasini to'liq yoki ayrim elementlarini joriy etgan bo'lib, ularning tarkibida ko'p miqdorda musulmon aholi yashovchi mamlakatlardan tashqari Buyuk Britaniya (aholisining 4,4 %ini musulmonlar tashkil etadi), AQSH (0,9 %), Singapur (15,6 %), Shveysariya (5,2 %), Kanada (3,2 %), Avstraliya (3,2 %), Fransiya (4 %), Germaniya (3,5 %) va Rossiya (15 %) singari mamlakatlarda ham islom moliyasi vositalaridan foydalanilmoqda.

Islom moliyasi aktivlarining mamlakatlar kesimidagi taqsimotiga ko'ra, 2021-yilda Eron 1,2 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu jami aktivlarning 31,2%igacha mos keladi (3-rasm). Mazkur ko'rsatkichlar Saudiya Arabistonida mos ravishda 896 mlrd. AQSh dollari (22,6 %), Malayziyada 650 mlrd. AQSh dollari (16,4 %) va BAAda 252 mlrd. AQSh dollari (6,4 %)ni tashkil etgan.

²¹ Imamnazarov J.M.: Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish mavzusidagi avtoreferati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan chizildi.



3-rasm. Islom moliyaviy aktivlarning ba'zi mamlakatlar kesimidagi ko'rsatkichlari (2021-yil, mlrd. AQSH dollari) ²²

Islomiy moliyaning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri uning real iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradigan va spekulativ xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydigan aktivlar bilan ta'minlangan va risklarni taqsimlash shartnomalariga urg'u berishdir (Usmani Muhammad Taqi, 2002). Bu jihat, ayniqsa, global moliyaviy inqirozlar fonida moliyaviy sektorda barqarorlik va yanada mustaxkam moliyaviy tizimga intilayotganlar uchun ayniqsa juda muhimdir.

Axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaga global qiziqish o'sishda davom etar ekan, islomiy moliya kelajakda yanada kengroq qo'llanilishini ko'rishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, islomiy moliyalashtirishning asosiy qismi musulmonlar bo'lmagan mamlakatlarda ko'pincha shariatning asosiy tamoyillariga sodiq qolgan holda mahalliy qonunlar, qoidalar va madaniy me'yorlarga mos keladigan tuzatishlarni talab qiladi. Natijada, turli mamlakatlarda islomiy moliya tamoyillarini an'anaviy amaliyotlar bilan uyg'unlashtirgan turli xil mijozlar va investorlar uchun dualistik moliyaviy tizimlar ishlab chiqiladi.

Islom moliya tizimi an'anaviy bank va moliya tizimidagi kabi bir qator moliyaviy institutlarni o'z ichiga oladi. Ushbu muassasalar qatoriga tijorat va investitsiya banklari, sug'urta kompaniyalari, elektron tijorat platformalari, aktivlarni boshqarish bo'yicha firmalar, shuningdek, broker va dilerlar kiradi.

So'ngi bir necha yil ichida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) bir qancha davlatlari islom moliya tizimini rivojlantirish tashabbusi bilan chiqdilar. Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Tojikiston o'z qonunchiligiga islom moliyasini rivojlantirish maqsadida o'zgartirish va qo'shimchalr kiritdi va hozirda ularda islom moliyaviy muassasalari o'z faoliyatni ko'rsatmoqda. Biroq, aksincha, O'zbekiston hali islom moliyasining huquqiy asoslarini yaratish jarayonini boshlagani yo'q. Islom moliyasining qonuniy asoslarini yaratmasdan turib, bu sohada sezilarli yutuqlarga erishib bo'lmaydi.

Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki 2003-yilda O'zbekiston Islom taraqqiyot bankiga a'zo bo'ldi, 2004-yilda esa Hususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasining (HSRIK) to'laqonli a'zosi bo'ldi. Bugungi kunga kelib bu tashkilotlarning O'zbekistonda moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan loyihalar bo'yicha 2,1 mlrd. AQSh dollaridan ortiq portfeli ma'qullangan (Hasanov, 2017).

Hukumat zarur qonunchilikni ishlab chiqishda faol yondashuvni namoyish etib, mavjud sharoitlarni yaxshilasa, xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtiriladigan investitsion loixalar uchun juda katta imkoniyatlarga yo'l ochilgan bo'lar edi. Xususan Islom taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyalari kabi nufuzli tashkilotlar islomiy moliyalashtirish loyihalarini jahon miqyosida amalga oshirish va rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha juda ulkan tajribaga egadirlar.

²² "Thomson Reuters" agentligi tomonidan nashir etilgan "Islamic finance development report 2022" ma'lumotlari

Ushbu xalqaro moliya institutlari islomiy moliya sohasida katta imkoniyat va resurslarga xam ega. Ular mamlakatimizda islom moliyaviy ekotizimini o'rnatish va mustahkamlashga yordam berish uchun texnik yordam, maslahat xizmatlari va moliyaviy yordam taklif qilishlari mumkin. Bunga salohiyatni oshirish dasturlari, moliyaviy mutaxassislar uchun ixtisoslashtirilgan treninglar va islom tamoyillariga mos keladigan me'yoriy-huquqiy bazalarni ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar kiradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun islomiy moliyadan foydalanish bir qancha potentsial foyda keltirishi mumkin:

Moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish: Islomiy moliyaviy mahsulotlarni joriy etish shariatga mos variantlarni afzal ko'rishi mumkin bo'lgan aholining turli qatlamini jalb qilishi va shu bilan moliyaviy xizmatlarning umumiy bozorini kengaytirishi mumkin.

Xorijiy sarmoyani jalb qilish: Islomiy moliya tizimiga ega bo'lgan davlatlardan xorijiy investorlarni va shariatga mos imkoniyatlar izlayotgan investorlarni jalb qilishi mumkin.

Risklarni taqsimlash mexanizmlari: Islomiy moliya risklarni taqsimlash shartnomalarini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa yanada barqaror moliyaviy tizimga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy inklyuziya: Diniy e'tiqodlarga mos keladigan muqobil moliyaviy xizmatlarni taklif qilish orqali islomiy moliya aholining ayrim qatlamlari uchun moliyaviy inklyuziya va bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilashga yordam beradi.

Biroq, iqtisodiy barqarorlikka erishish va islomiy moliya imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagi muammolarni xam hal qilish zarur:

Huquqiy va me'yoriy baza: Islomiy moliya mamlakatning mavjud moliya tizimida samarali va shaffof ishlashini ta'minlash uchun mustahkam huquqiy va me'yoriy bazani yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va xabardorlik: Jamiyat va moliyaviy mutaxassislarni islomiy moliya haqida ma'lumot berish uni muvaffaqiyatli amalga oshirish va undan foydalanish uchun juda muhimdir.

Malakali mutaxassislar: Islomiy moliya sohasida tajribaga ega malakali ishchi kuchini rivojlantirish ushbu ixtisoslashgan moliyaviy mahsulotlarni taklif qilish va boshqarish uchun zarur.

Адабиётлар/Литература/References:

Baydaulet E.A. (2019) *Islomiy moliya asoslari*. –T.: (O'zbekiston).

Haydarov O.A. (2022) *Respublikamiz Tijorat Banklarida Islom moliya tizimidan foydalanishni takomillashtirish*. Iqtisod va Moliya.

Husan Hasanov: (2017) *Ahloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi innovasion moliyalashtirish vastiasi sifatida (O'zbekiston va MDH misolida) Ethical (Islamic) Financing as an Instrument of Innovative Financin*

IFDI (2022) *Islamic Finance Development Report 2022: Embracing change. The Islamic Corporation for the Development of the Private Sector and Refinitiv*. p 30

Imamnazarov J.M. (2023) *Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati*. -T.: TDIU.

Taner SEKMEN: (2021) *Islamic Banking and Economic Growth in the Dual Banking System. Optimum Journal of Economics and Management Sciences*,

Usmani Muhammad Taqi – (1998): Title: "An Introduction to Islamic Finance"

Usmani Muhammad Taqi – (2002): Title: "Islamic Banking and Finance: Fundamentals and Contemporary Issues"

Xabibullayev D.R. (2023) *O'zbekistonda dualistik moliya tizimini shakillantirishda islom moliyaviy munosabatlarining ahamiyati. "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi II respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami*. 5-aprel 412 b

Аброров С.З. (2020), *Ўзбекистонда сукук –исломий қимматли қоғозларни жорий этиш истиқболлари*. 08.00.07-Молия, пул муомиласи ва кредит PhD илмий даражаси диссертацияси /ТДИУ Т;

Аброров, С. (2021) *Ислom молияси: Ўзбекистон учун янги имкониятлар*. Экономика и образование